
Navbatdagi qabul 2-sektor hududida o'tkazildi

Bugun shahar hokimligi tomonidan tashkillangan sayyor qabulda Farg'ona shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektor rahbarlari, fuqarolik va ma'muriy ishlar bo'yicha sud raislari, majburiy ijro byurosi vakillari hamda hokim o'rinbosarlari ishtirok etishdi.

Qirguli mavzeidagi "Do'stlik uyi"ning faollar zalida 150 nafardan ortiq fuqarolarning murojaatlari mas'ul rahbarlar ishtirokida o'rganildi. O'ttiz nafarga yaqin fuqarolarning murojaatlar ijobiy hal qilindi.

Kelib tushgan murojaatlarni o'rganish va natijasi bo'yicha mualliflarga ma'lum qilish uchun masalaga daxldor xodimlar, korxonalar, tashkilot va bo'limlarga tegishli topshiriqlar berildi. Qabul so'ngida yuridik va jismoniy shaxslardan tushgan murojaatlarning o'rganilganlik holati hamda ijobiy hal etilishi bo'yicha tanqidiy tahlil qilindi.

2023-04-12 12:13:51